

## **RISK TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI**

**SH.Mingboyev**

MTTDMQTMOI Tayanch doktaranti

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.10824189>**

**Annotasiya:** Maqlada “risk”, “risq” “pedagogik risk”, biznes risklari, moliyaviy risk, sog‘liqni saqlash bo‘yicha risk, axborot texnologiyalari riski, loyiha riski, ekologik risk, tabiiy va texnik risk, pedagogik risklar tushunchalari tahlil etilib, “risk” atamasining etimologiyasi, jamiyatning turli sohalarida risk tushunchasini qo‘llanishining mazmuni ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Axborot texnologiyalari riski, kasbiy kompetensiya, pedagogik risk, risk, , , ehtimollik, risq, xavf, xavf-xatar, tavakkalchilik, , moliyaviy risk, ekologik risk, loyiha riski, riskologik immunitet

Bugungi kunda risk tushunchasi jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha jabhalarda qo‘llanmoqda.

Raqamli Vikipediya ensiklopidiyasidagi tarifda: risk - bu yomon narsa sodir bo‘lish ehtimoli. Xavf inson qadrlaydigan narsaga (sog‘liq, farovonlik, boylik, mulk yoki atrof-muhit kabi) nisbatan faoliyatning ta’siri haqida noaniqlikni o‘z ichiga oladi va ko‘pincha salbiy, istalmagan oqibatlarga e’tibor beradi<sup>1</sup>.

Cambridge Dictionary electron lug‘atida: Risk - bu biror narsa qilish yoki xafa bo‘lish yoki yo‘qotish yoki mag’lub bo‘lish ehtimoli mavjud bo‘lgan vaziyatga kirish<sup>2</sup> ni anglatadi.

S.I.Ojegovning rus tili lug‘atida esa quyidagicha tarif ketrilgan: Risk - bu bo‘lishi kutilayotgan xavf, omadsizlik yoki holatni, vaziyatni yaxshi tugashiga umid qilish hamda xavf-xatarni bila turib harakat qilishdir.<sup>3</sup>

Avvalombor ushbu tushunchaning etimologiyasiga e’tibor qaratamiz.

Mazkur tushuncha, ehtimol ravishda uchta kelib chiqishi mavjud va shundan ikkitasi xavf tushunchasi bilan bog‘liq; risk italiyancha risco yoki ispancha *riesco* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, ikkalasi ham lotincha resecum (kesuvchi) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dengizda kemalarga tahdid soladigan qoyalarni va dengizchilar uchun har qanday xavfni aniqlash uchun ishlataladi. Ushbu etimologiya mazkur tushunchani 14-asrda Genuyada keng tarqalgan dengiz sug‘urta kompaniyalari bilan bog‘laydi<sup>4</sup>.

Risk haqidagi zamonaviy tushuncha Fransiyada XVII asrda, tarixan, ehtimollik nazariyasini rivojlangan vaqtida keng tarqalganligi bejiz emas. Fransiyalik olimlar G.Kardan, B.Paskal, P.Fermat va Kristian Gyuygenslarning XVI - XVII asrlardagi o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida foydalangan va keyinchalik barcha sohalarga keng qo‘llana boshlagan.

Risk tushunchasi tahliliga yanada chuqurroq qaraydigan bo‘lsak, aslida mazkur tushuncha ancha oldinroqqa borib taqaladi. Risk arabchada “risq” so‘zi bilan ma’no va mazmun jihatdan deyarli bir-biriga yaqin. Islom ensiklopediyasida risq so‘ziga quyidagicha tarif berilgan: “Risq (arabcha) ulush, Quronga ko‘ra, Allohning har bir insonga bergen ulushi, Islom diniga ko‘ra, barcha bandaning risqini Alloh belgilab bergen, o‘lchab qo‘ygan ne’matlari. Risqni faqat Alloh taoloning o‘zi beradi<sup>5</sup>”. Qur’oni karimda shunday oyatlar mavjud “Yerda o‘rmalovchi biror narsa

<sup>1</sup><https://en.wikipedia.org/wiki/Risk>

<sup>2</sup> <https://dictionary.cambridge.org/ru/risk>

<sup>3</sup> С.И Ожегов “Словарь русского языка” Москва -1973 ст-626

<sup>4</sup> Peretti-Watel P, 2001. [La société du risque]. [Fransuz tilidagi kitob]. La Découverte nashri, Parij, Fransiya.

<sup>5</sup> Islom ensiklopediyasi “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti”, Toshkent -2017, 385-bet.

(jonzot) yo‘qli, uning rizqi (ta’minoti) Allohnning zimmasida bo‘lmasa! (U) uning qarorgohini ham, oromgohini ham bilur. Hammasi aniq Kitob (Lavhul-Mahfuz)da (yozilgan)dir” (Hud, 6) Qur’oni karim<sup>6</sup>.

Ammo risk tushunchasi munozarali etimologiya, takroriy ta’riflar va bir nechta kontekstlarda qo‘llaniladigan o‘xhash atamalarning chalkashligi tufayli aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin. Shuningdek, risk tushunchasi bir qancha sinonimlarga ega. Misol uchun, tavakkalchilik, ehtimollik, ehtiyyotkorlik, mavhumlik, noaniqlik, omadlik, chalkashlik, xavf-xatar, yo‘qotish, yutish, nizoli vaziyat ma’nolarida ifodalashimiz mumkin. Risk atamasiga ko‘plab yaqin ma’nodagi so‘zlarni ishlatishimizning asosiy sababi, inson faoliyatni sohasidan qat’iy nazar shaxs va jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lgan moddiy va ma’naviy hayot yotadi.

Biz hayotimiz davomida risk va tavakkal so‘zlaridan sinonim so‘zlar sifatida foydalanamiz. Biroq, bu ikki tushuncha bir-biridan farqli ma’nolarga egadir. Misol uchun, O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Tavakkal (arabcha) - vakolat olish, umid bog‘lash, suyanish ma’nolarini anglatib, oqibat natija qanday bo‘lishidan qay’iy nazar, biror ishga jazm qilish, nima bo‘lsa bo‘lar yoki ostidan yoki ustidan zaylida qilingan harakatdir<sup>7</sup>. Bundan tushunishimiz mumkinki, tavakkalchilik biror ish harakat natijasi kutulgan bo‘lishiga umidvorlik ma’nosini bildiradi yoki buning aksi ham bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy ma’noda risk so‘zi ikki xil ma’noga ega: y xavf ehtimoli va bir vaqtning o’zida uning potentsial natijasini anglatishi mumkin. Birinchi ta’rif risk manbasiga urg’u beradi, ikkinchisi esa tavakkal bo‘lgan maqsadga qaratilgan. Xavf va tavakkal tushunchalari riskga xosdir.

Xavf tushunchasi O‘zbek tilining izohli lug‘atida arabchadan qo‘rqinch, ҳадиксираш, biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo‘lish ehtimolligi, xatarni tushunishimiz mumkin<sup>8</sup>.

Ushbu ikki tomonlama ma’no xavfning oldini olish va boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni yaratishga ta’sir ko’rsatdi. Potentsial riskli voqeа yoki hodisa insonning shaxsiy yoki kasbiy faoliyatiga, jamiyatga atrof-muhitga, moddiy, manaviy yoki jismoniy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina xavf tug‘diradi. Masalan, tabiiy risk tasodifiy, tabiiy hodisaning (bo‘ron, vulqon otilishi va boshqalar) yaqinlashishi, uning yaqin atrofdagi potentsial ta’siri hisoblanadi.

Biz yuqoridagi ta’kidlaganimizdek, risk atamasi uchun eng ko‘p tavsiya etilgan sinonimlar salbiy (xavf, xatar, tahdid, qurquv, vahima, kamchilik), neytral (tavakkal qilish, tushunmovchilik, raqobat, ehtiyyotkorlik, chidamlilik javobgarlik, qiyinchilik, mas’uliyat) va ijobjiy (omad, baxt, muvaffaqiyat) bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Umumiy nutqda “risk” va “xavf” bir-birining o‘rnida ishlataladi, ammo risk - bu xavfning sinonimi emas: risk - bu xavfning noaniqlik omili bilan birikmasidir.

Risk atamasi to‘g‘risida umumiy tushunchaga ega bo‘lgandan so‘ng shunday xulosaga kelish mumkinki, inson risqini topishi uchun doimiy harakatda bo‘ladi, qaysidir faoliyat turi bilan shug‘ullanadi, chunki inson ehtiyojlari cheksizlikka intilgan sari uni qondirishga manba bo‘lgan resurslar cheklanaveradi. Natijada taqchillik vujudga kelib raqobatning turli ko‘rinishi namoyon bo‘la boshlaydi.

<sup>6</sup> Qur’oni karim “Toshkent islom universiteti “nashriyoti-2001, 222-bet.

<sup>7</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati 3-jild “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti Toshkent -2020, 629-bet”

<sup>8</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati 4-jild “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti Toshkent -2020, 372, 373 - betlar”

Shu o'rinda risklar bilan jamiyatning turli amaliyot sohalarida yuzma-yuz kelishi, uni tushunish, aniqlash, farqlanishi haqida to'xtalib o'tsak. Quyidagi umumiy sohalar: Iqtisodiy, Ijtimoiy, Siyosiy, Tabiiy-texnik va boshqa sohalarda qo'llanilishi mumkun. Jumladan, Biznes risklari, Moliyaviy risk, Sog'liqni saqlash bo'yicha risk, Axborot texnologiyalari riski, Loyiha riski, Ekologik risk, Tabiiy va texnik risk, Pedagogik risklar ba boshq.

Biz quyida ularning har biriga va ular qanday ma'no-mazmun aks ettirishiga to'xtalib o'tamiz.

#### **Biznes risklari**

Tadbirkor biznesining ish boshlashidan tortib to kelajakdagi foydasi haqidagi noaniqlikdan kelib chiqadigan masalalar, didning o'zgarishi, iste'molchilarning xohish-istiklarining o'zgarishi, ish tashlashlar, raqobatning kuchayishi, hukumat siyosatidagi o'zgarishlar, eskirish va boshqalar. Iqtisodiy va moliyaviy jihatdan risk - bu potentsial, son bilan o'lchanadigan yo'qotish ehtimoli.

#### **Moliyaviy risk**

Moliya pulni boshqarish va mablag'larni sotib olish bilan bog'liq. Moliyaviy risk moliyaviy daromadlarning noaniqligidan kelib chiqadi. U bozor riskini, kredit riskini, likvidlik riskini va operatsion riskni o'z ichiga oladi. Investitsiyaning haqiqiy daromadi kutilgan daromaddan farq qilishi ehtimoli. Bu nafaqat "pastga tushadigan xavf" (kutilgandan past daromad, shu jumladan dastlabki investitsiyalarning bir qismini yoki barchasini yo'qotish ehtimoli) emas, balki "yuqori risk" (kutishdan oshib ketadigan daromad)ni ham o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash bo'yicha risk - kasallik va boshqa biologik xavflardan kelib chiqadi.

Axborot texnologiyalari riski bu – Axborot texnologiyalari (IT) ma'lumotlarni saqlash, olish, uzatish va manipulyatsiya qilish uchun kompyuterlardan foydalanish. AT riski (yoki kiber risklari) tahdidning zaiflikdan foydalanib, xavfsizlikni buzish va zarar etkazishi mumkin bo'lgan potentsialdan kelib chiqadi.

Loyiha riski - bu aniq maqsadga erishish uchun rejalshtirilgan individual yoki hamkorlikdagi tashabbus. ro'y bersa, loyiha maqsadlariga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan noaniq hodisa yoki holat deb ta'riflanadi.

Ekologik risk ekologik xavf yoki ekologik muammolardan kelib chiqadi. Atrof-muhit nuqtai nazaridan risk inson salomatligi yoki ekologik tizimlarga zararli ta'sir ko'rsatish ehtimoli sifatida ta'riflanadi.

Tabiiy va texnik risk odamlarga, mulkka va atrof-muhitga zarar etkazadigan baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin bo'lgan turli xil xavf-xatarlar bilan bog'liq. Kutulmagan tabiiy ofatlarni ham nazarda tutamiz.

Pedagogik risklar - bu ta'lim tashkilotlarini boshqarish faoliyatiga tayyorlash; pedagogik faoliyatda uchraydigan ijtimoiy-iqtisodiy risk tizimlari va ta'lim boshqaruvidagi ichki ixtiroflar, ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarning umumiy jihatlarini tushuniladi.

Biz jamiyatda risk atamasining ko'plab holatlarda uchrashini o'rganib chiqdik. Risk tushunchasi insonning shaxsiy va kasbiy faoliyatida doimiy ravishda uchrashi mumkin bo'lgan voqia, hodisadir.

Risklarni tushunish, anglash hamda uni boshqarish uchun jamiyatning barcha jabhasida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va xodimlarning riskologik immunitetni shakllanishi bugungi kunning davr talabi hisoblanadi.

#### **REFERENCES**

1. Islom ensiklopediyasi “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti”, Toshkent -2017
  2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 3,4 - jild “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti Toshkent -2020.
  3. Qur’oni karim “Toshkent islom universiteti “nashriyoti-2001
  4. Peretti-Watel P, 2001. [La société du risque]. [Fransuz tilidagi kitob]. La Découverte nashri, Parij, Fransiya.
  5. С.И Ожегов “Словарь русского языка” Москва -1973 ст-626
- a. Elektron adabiyotlar ro’yxati
6. <https://en.wikipedia.org/wiki/Risk>
  7. [https://dictionary.cambridge.org/ru /risk](https://dictionary.cambridge.org/ru/risk)